

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti  
rektori Sh.Sirojiddinov**



*(Handwritten signature in blue ink)*

**7-oktabr 2024-yil**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(o‘zbek adabiyoti) ixtisosligi  
bo‘yicha tayanch doktoranturaga  
kirish imtihoni dasturi**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2024-yil 7-oktabrdagi 2-sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar:** ped.f.d., prof. R.Niyozmetova  
f.f.d., prof. M.Abdullayeva

## KIRISH

2016-yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonda “umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonida “umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish”, “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda ona tili va adabiyot ta’limi oldiga o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘z g‘alalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirish, o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini DTS darajasida shakllantirishda O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanining alohida o‘rni bor.

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi (o‘zbek adabiyoti) bo‘yicha tuzilgan mazkur dastur Adabiyot o‘qitish metodikasi fanidagi nazariy-fundamental muammolarni tushunish, ularni tahlil eta olish va hal etishga nisbatan fanda shakllangan yondashuvlar haqidagi bilimlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bunda adabiyot metodikasi bo‘yicha quyidagi mavzu yo‘nalishlarida izlanuvchi mustaqil ravishda o‘z bilimini chuqurlashtirishi ko‘zda tutiladi:

- Adabiyot o‘qitish metodikasi fanining ilmiy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat tamoyillari;
- o‘quv jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar;
- ta’lim jarayonida shaxslik sifatlarining namoyon bo‘lishi;
- adabiyot o‘qitishning pedagogik, psixologik, fiziologik va metodik asoslari;
- ta’lim jarayonini texnologiyalash;
  - shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi;
  - pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning tamoyillari bilan bog‘liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta’lim jarayonini pedagogik jihatdan yaxlit tarzda tashkil etish va amalga oshirish;
  - ta’limga texnologik yondashuv, o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish, pedagogik faoliyatni oqilona rejalashtirish va tashkil etish;
  - ta’lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta’lim jarayonini ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi interfaol metodlarni bilish va ulardan foydalana olish;
  - ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish;
  - rus pedagoglari nazariyasi va amaliyotini o‘rganish;
  - xalqaro adabiy ta’limdan xabardir bo‘lish;
  - xalqaro baholash nazariyasi va amaliyoti;

- ilmiy-tadqiqot metodologiyasini bilishi;
- tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlarini olib borish;
  - matematik-statistik tahlilni amalga oshirish;
  - ilg'or metod va texnologiyalar va pedagogik mahoratni ta'lim jarayonida qo'llay olish.

### **1-qism. Metodologik masalalar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712- Farmonida ta'lim sifatiga mas'ul idora, tashkilotlar oldiga "...uzluksiz ta'lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shuningdek, Yurtboshimizning 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907- Qarorida "...yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash; yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash" singari bir nechta muhim ko'rsatmalar berilgan.

Ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash, shu orqali dunyoning boshqa mamlakatlari bilan solishtirma tahlillarni olib borish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mohiyati.

### **Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari**

Yurt mustaqilligiga erishilganidan keyin pedagogika ilmi va amaliyotida, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilayotgan keskin o'zgarishlar. Bolalarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra ma'naviyatini sog'lomlashtirishning, mustaqil fikrlashga yo'naltirishning, ta'lim olish jarayonida o'zlarining ishtirokini ta'minlashning yangi-yangi yo'llarini topishga intilinayotganligi. O'qitishning asosiy ashyosi bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalar hamda metodika ilmi yordamida ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri va keng dunyoqarashiga ega bo'lgan, o'z sohasini yaxshi biladigan avlodni tarbiyalashning muhimligi.

Adabiyot o'qitish metodikasining pedagogika tizimiga mansub mustaqil fan ekanligi. Adabiyot o'qitish metodikasining metodologik asoslari. Adabiyot o'qitish metodikasining ob'ekti va predmeti. Adabiyot o'qitishning maqsadi va vazifalari.

Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari. Adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'tmishdagi buyuk allomalar, mudarris olimlarning qarashlariga tayanishi. Metodik fikrlar tarixining o'zbek xalqi va millat adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqligi.

### **Badiiy asar ustida ishlashning shakli va mazmuniga ko'ra turlari**

Badiiy asarni o'qishning shakliga ko'ra turlari. Adabiy asarni sinfda o'qish. Mustaqil o'qish. Sinfdan tashqari o'qish. Badiiy asar o'qishga qiziqtirish yo'llari. Asarni ovoz chiqarib va ichdan o'qish. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Sharhlab o'qish, jo'r bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish. Bularning adabiy ta'limdagi o'rni va ahamiyati.

Badiiy matnni o'qishning mazmuniga ko'ra turlari. Ifodali o'qish. Mantiqiy o'qish. Badiiy o'qish. Adabiy o'qish. Asarni o'qish qonun-qoidalariga, tinish belgilariga, shakliga e'tibor berish. Asarning mazmuniga diqqat qaratish. Mantiqiy o'qishda urg'u. Badiiy o'qish orqali adabiyot darslarining san'at darslariga aylanib ketishi mumkinligi. Bunda tuyg'ular jo'shqinligining ustuvorligi. Shehrning hijolari, turoqlari va vazniga e'tibor berib o'qish.

**Asarlarni janri va obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish** Epik, lirik va dramatik turdagi asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra farqlash. Har turga mansub asarlardagi badiiy va majoziy obrazlar tahlili. Lirik qahramon tushunchasi va uning matndagi o'rni. Asardagi asosiy va yordamchi obrazlar.

### **Epik asarlar ustida ishlash yo'llari**

Epik asarlar tahlilining o'ziga xos xususiyatlari. Epik asarlarni o'rganishda tafsilot tasvirining o'rni. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik talablari. Epik asarlar tahlilida uning hajmini hisobga olish. Kichik hajmli bitiklar tahlilida matnga ergashish kerakligi. Yirik epik asarlar tahlilida obrazlarga tayanish zarurligi. Muammoli tahlil va undan foydalanish yo'llari.

### **Lirik asarlarni o'rganish**

Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik asarlarda kayfiyat va tuyg'ular tasvirining ustuvorligi. Lirik asarlarning inson ichki dunyosi, ruh va qalb hodisalarining tasvir ob'ekti ekanligi. Lirik asarlarda ifodali o'qishning ahamiyati. Lirik qahramon va shoir shaxsi munosabati.

## **Dramatik asarlar ustida ishlash yo‘llari**

Dramatik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarlarning turlari. Dramatik asar tahlilida sahna asariga xos sahna, parda, ko‘rinish, dekloratsiya, monolog, dialog, luqma, remarka, haqidagi nazariy ma’lumotlarning o‘rni.

## **Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish**

Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish adabiyot o‘qitishning metodologik asosi hamda badiiy tahlil vositasi ekani. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rgatishda ko‘proq milliy adabiyotga tayanish kerkligi. O‘quvchilarga dasturda ko‘zda tutilgan nazariy tushunchalarni o‘rgatish, zarur bo‘lganda dasturda nazarda tutilmagan nazariy ma’luotlarning berilishini rejalashtirish mumkinligi. Nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rgatish, bunda sinflararo uzviylik va uzluksizlikka erishish zarurligi. Adabiy-nazariy bilimlarni berishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarligini hisobga olish, soddadan murakkabga tamoyilining zarurligini ko‘rsatish.

## **O‘rganilayotgan asarlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar bilan ishlash**

Darslikdagi materiallarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi matndan tashqari materiallardan biri shu matn yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ekanligi. Savol va topshiriqlarning ma’lum guruhlarga ajratilishi. Savol-topshiriqlar evristik, suhbat, induktiv, deduktiv singari bir qator xususiyatlarga ega bo‘lishi kerakligi. Ularning uy vazifalarini so‘rashda ham yetakchilik qilishi. Savollarning topshiriqlardan farqi. Konseptual savol-topshiriqlarga xos jihatlar.

## **Adabiyot o‘quv fanidan beriladigan uy vazifalari**

O‘quvchi ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqillikning uy vazifalarini bajarishiga ham bo‘g‘liq ekani. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmasligi kerakligi. Aks holda, o‘quv materialini ko‘r-ko‘rona eslab qolish holati yuz berishi. Uy vazifalari o‘quvchining sinfdagi faoliyatidan barcha topshiriqlar o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi, ta’limning bu turidan darsda tarbiyalangan mustaqil fikrlash faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim ekanligi. Ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bilan yetarli darajada shug‘ullanilmayotganligi.

## **Yozuvchi tarjimai holining berilishiga xos xususiyatlar**

Darsliklarda beriladigan hasbi hollarga qo'yiladigan talablar. Yozuvchi hayot yo'lining ijodiga aloqadorlik jihatlari. Yozuvchining uslubiga xos xususiyatlar. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'lkashunoslik materiallaridan, AKT va multimediya vositalaridan foydalanish. Ijodkor umr yo'lini o'rgatishda o'quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda ikki xil yondashuv borligi. O'rta va yuqori sinflarda adib umr yo'lini o'rganishning farqli jihatlari.

## **2-qism. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va adabiy ta'lim. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va adabiyot o'qitishda undan foydalanish yo'llari**

Pedagogik innovatsiya – ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish jarayoniga kiritilgan yangiliklarni anglatishi. Innovatsiya jarayoni ta'lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o'stirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushuncha ekanligi. Pedagogik innovatsiyalarga xos muhim belgilar.

Modul so'zi qism, bo'lak, blok ma'nolarini anglatishi. Modulli ta'lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalashi. Bu ta'lim dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'lishi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadani anglatishi.

Adabiyot o'qitish jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda o'rganiladigan mavzu mantiqiy tugallangan bo'laklarga, ya'ni modullarga ajratilishi. Har bir bo'lak o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqlarga aylantirilishi mumkinligi.

## **3-qism. Adabiy ta'lim vositalari**

Adabiy ta'limda DTS, o'quv rejasi va dastur singari rasmiy pedagogik hujjatlarning o'rni. Umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Adabiyot" darsliklari mazmuni va unga qo'yiladigan pedagogik, psixologik, didaktik va metodik talablar.

Ta'lim amaliyotida mazkur o'quv ashyolaridan foydalanish kompetentligini shakllantirishning o'rni. Bo'lajak o'qituvchi kompetentligini ta'minlashda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar

o'rtasidagi mutanosiblikka ega bo'lish hamda amaliyotda ulardan foydalana bilishning ahamiyati.

Darslik va unga qo'yiladigan talablar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot" darsliklarining tuzilishi va mazmuni.

Akademik litsey va kollejlarning adabiyot darsliklarining o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv va metodik qo'llanmalar haqida ma'lumot. Lug'atlar, qomuslar, axborot-ma'lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari.

#### **4- qism. Adabiyot o'qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni**

Adabiy ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati. Adabiyot o'qitish shakllari va usullari. Adabiyot o'qitish metodlarining tasnifi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. O'qitish metodlarining har biriga xos yetakchi xususiyatlar. Adabiy ta'lim jarayonining bosqichlari, ularning uzviyligi va uzluksizligi tushunchasi mohiyati.

#### **5-qism. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**

##### **Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.**

Pedagogik mahorat tushunchasining mohiyati. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. Pedagogik kompetentlilik. Innovatsion ta'lim sharoitida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Pedagogik texnologiyadan foydalanish va pedagogik mahorat bog'liqligi.

##### **Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi sifatida**

Pedagogik qobiliyatning umumiy tavsifi. Pedagogik qobiliyatning turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyat – pedagogik aloqa o'rnatishning asosiy vositasi. Muloqot orqali ta'sir ko'rsatish va muomala uslublari.

##### **Pedagogik takt va pedagogik odob**

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi. Hamkorlik pedagogikasi. Pedagogik odobning me'yorlari va omillari. O'qituvchining dilkashlik xususiyati va uning ahamiyati.

##### **Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati**

O'qituvchining nutq madaniyati va unga qo'yiladigan asosiy talablar. Nutqiy faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llari. Nutqiy faoliyat ko'nikma va malakalari: tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika.



## **Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari**

Pedagogik texnologiyaning shakllanishi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati. Pedagogik texnologiya tamoyillari. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi.

## **O‘quv jarayonini loyihalash va rejalashtirish**

O‘quv maqsadlarini shakllantirish. Pedagogik vazifalar va o‘quv faoliyati natijalarini loyihalash. O‘quv maqsadlarining turlari va ularga erishilganlikni baholash. Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish konsepsiyasi hamda qayta takrorlanadigan o‘qitish sikli tarkibi va tuzilmasi.

## **Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari**

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta’lim texnologiyalari. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. O‘yin texnologiyasi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi. Masofaviy ta’lim texnologiyasi.

## **6-qism. Xalqaro adabiy ta’lim tajribalari**

Xalqaro ta’limda adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Rossiya, Turkiya, Yaponiya tajribasi. Badiiy asarlarni o‘qitishda xalqaro yondashuvlar va metodlar. Xalqaro baholash mezonlari. Xalqaro baholashning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni. **PISA, PIRLS, TIMSS** xalqaro baholash dasturlari. O‘qishlilik indeksi: **FLASH INDEX** dasturi.

## **Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti) ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o‘qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Куч адолатда, 2016 йил 8 декабр, № 47.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги қонуни (1989 йил 21 октябр; янги таҳрири – 1995 йил 21 декабр).

3. Ўзбекистон Республикасининг «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги қонуни (1993 йил 2 сентябр; янги таҳрири – 1995 йил 6 май).

4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.– Т.: Шарқ, 1998. – Б. 20-29. (Янги таҳрири)

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4797-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил 14 май, № 94 (6529).

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2018 йил, 8 декабр.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.

9. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. (Ўрта, ўрта махсус таълим муассасаларининг X–XI синфлари учун). – Т.: Республика таълим маркази, 2017. – 197 б.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi” qonuni. 2019 yil, 22 ilyul.

11. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2022 yil, 28 yanvar.

## ***II. Ilmiy-metodik adabiyotlar:***

12. Зуннунов А., Нотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.

13. Йўлдошев Ж. Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.

14. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: “Камалак”, 2016. – 464 б.

15. Atamutodova Rohila. Adabiy ta’lim jarayonida Abdulla Oripov ijodini o‘rgatish usullari. Ped. Fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. T: - 2011.

16. Долимов У. Туркистонда жаҳид мактаблари (тил ва адабиёт ўқитиш муаммолари). – Т.: Фан, 2007. – 204 б.

17. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016.

18. Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика. (Олий ўқув ютрларининг бошланғич таълим методикаси факултетларининг талабалари, педагогика лицейлари ва коллежларининг ўқувчилари учун дарслик). – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 512 б.

19. Марасулова У.Н. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида адабий-назарий тушунчаларни шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: пед. фан. ном... дисс. – Т., 2007. – 145 б.
20. Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. докт. ...дисс. – Т., 1998. – 268 б.
21. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. докт. ...дисс. – Т.: 1995. – 264 б.
22. Ражабова.И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. Тошкент, «Тамаддун», 2010.
23. Суюнов Н. Адабиёт дарсларида Ўқувчиларни савол-топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед.фан.ном...ёзилган.дисс. –Т.: 2005. – 147 б.
24. Файзуллаева Г. Ш. Адабий таълим узвийлиги асосида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш (V-IX синфлар мисолида). Пед. фан. бўйича ф.д. (PhD) ёзилган.дисс. –Т.: 2019. – 144 б.
25. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. –Т.: Фан, 2006. – 261 б.
26. Тўхлиев Б. Бадиий асарларни шарҳлаб ўрганиш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 147 б.
27. То‘хлиев В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
28. Тўхлиев Б., Ашурова Г. Таълим босқичларида Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш. –Т.: Баёз, 2017 – 208 б.
29. Shodiyeva N. Ta’lim jarayonida interaktiv darslarni qo‘llash. O‘quv qo‘llanma.-T.2015.
30. Эгамбердиева Ф.О. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси: пед. фан. ном... дисс. – Т., 2005. – 146 б.
31. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o‘qitish: muammo va yechimlar, – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasdi, 2009.
32. Quronov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. ”Akademnashr”. Toshkent. -2010
33. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Баркамол-файз-медиа, 2018 – 352 б.
34. Хусанбоева Q. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.

### **III. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

35. Ниёзметова Р.Н. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.
36. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с.
37. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1998. С. 201.
38. Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumta’lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo‘llanma. – Т.: «Sharq», 2004.
39. Yoldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – Т.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2017. – 368 b.
40. Yo‘ldoshev Q. va bq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri. 1-q. –Т.: Yangiyo‘l poligraph servic, 2019. – 400 b.
41. S.Muhammedova, M.Abdullayeva va boshq. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. –Т.: 2020. Innovatsion-Ziyo. 172 –b.

### **IV. Xorijiy manbalar:**

42. Гейн А. Г. Изучение информационного моделирования как средство реализации межпредметных связей информатики с дисциплинами естественнонаучного цикла: Автореф. канд.пед.наук. - М., 2000.
43. Хамидов В.С. Методи модели веб ориентированных адаптивных обучающих систем / ЛАП ЛАМБЕРТ Академик Публишинг, Германии. 228 стр.
44. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 17 p.
45. Эльконин Д.Б. Психология игры. –Москва. Педагогика. 1978.
46. Колеченко А.Э. Энциклопедия педагогических технологий: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2002 г.
47. Питюков В.Ю. Основы педагогической технологии.- М.: «Гном-Пресс», 1999 г.

### **Baholash mezonlari:**

Kirish sinovi og‘zaki o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har bir savolga bergan javobi quyidagicha baholanadi:

<b>Har bir savol uchun ball</b>	<b>Javobga qo‘yiladigan talablar</b>
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslangan, aniq xulosani bayon qilgan, fikrlari erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini to‘g‘ri tushungan. Amaliy misollar keltirilgan. Yetarli xulosa bergan. Fikrlarni erkin bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob qisqa shaklda yoritilgan. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman, yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.

### **NAMUNAVIY SAVOLLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarning adabiyot o‘qitish metodikasini yangilashga ta’siri xususida fikringizni bayon eting.

2. Ta’lim sohasida innovatsiya tushunchasi, uning turlari.

3. Keys-stadi haqida tushuncha bering?

4. Genetik tahlilda qanday amalga oshiriladi?

5. Adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha so‘nggi yillarda yaratilgan tadqiqotlar xususida so‘zlang.

6. Kompetentlik va keriativlikni yoriting.

7. Keys-stadi metodining kelib chiqishi haqida ma'lumot bering?
8. Tipologik tahlilni tushuntiring?
9. O'quv, ilmiy va maktab tizimi integratsiyasining huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi ifodasi xususida ma'lumot bering va fikringizni adabiy ta'lim misolida asoslang.
10. Keys-stadi maktablari haqida gapiring?
11. Sharhlashda lug'atlarning ahamiyatini yoriting.
12. Filologik tahlilda nimalarga e'tibor qaratiladi?
13. Pedagogika oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi mazmuni haqida ma'lumot bering va fikringizga misollar keltiring.
14. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar.
15. "Texnologiya" tushunchasiga izoh bering.
16. Dars kuzatishga kirayotgan o'qituvchiga qo'yiladigan talablar mazmunini bayon eting.
17. Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida nechta darajada qo'llaniladi va ularni yoriting.
18. Dars tahliliga xos yetakchi tamoyillar mazmunini bayon eting.
19. "Innovatsion pedagogika" dastlab kim tomonidan ishlab chiqilgan, izohlang.
20. Raqamli didaktika deganda nimani tushunasiz?
21. Darsning tashkiliy tahlili mazmuni haqida ma'lumot bering.
22. Muammoli ta'lim va uning asosiy xususiyatlarini yoriting.
23. V.R.Bespalko qanday texnologiya turlarini tavsiya etgan.
24. Keys topshrig'ini bajarishda qo'llaniladigan strategiyalar.
25. Darsning ilmiy tahlili mazmunini yoriting.
26. Keys-stadini amalga oshirish bosqichlarini ko'rsating?
27. Badiiy asarlarni sharhlab o'qitish: tadriji va takomili.
28. Psixologik tahlil qanday amalga oshiriladi?
29. Professionalizm nima?

30. Muammoli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifalari haqida ma'lumot bering.

31. Ta'lim texnologiyasi turlarini ayting?

32. Badiiy asarni o'rganish bo'yicha keys tuzing?

33. Elektron ta'lim resurslarini qanday yaratish mumkin?

34. Ta'limda foydalaniladigan xalqaro dasturlar haqida ma'lumot bering.

35. Muammoli dars tashkil etishga qo'yiladigan umumiy talablar mazmunini bayon eting.

36. PISA xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot bering?

37. Darsning psixologik tahlili mazmunini yoriting.

38. **Xalqaro baholashning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni.**

39. Lirik asarlarni sharhlab o'qitish usullari.

40. Funktsional tahlil deganda nimani tushunasiz?

41. Oddiy savol bilan muammoli savol orasidagi farq xususida so'zlang. Biror badiiy asar matni asosida oddiy va muammoli savollarga misollar keltiring.

42. Zamonaviy adabiyot darslariga qo'yiladigan talablar mazmunini bayon eting.

43. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari qachon shakllana boshladi?

44. **PIRLS** xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot bering?

45. Adabiyot o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni.

46. Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalishini ayting?

47. Rosiyalik metodist olimlarning badiiy asarlarni o'rganish borasidagi tajribalari bilan o'rtoqlashing.

48. **TIMSS** xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot bering?

49. Turkiyada adabiyot o'qitish mazmuniga to'xtaling.

50. Ochiq darslarni tashkil etish metodikasini yoriting. Bunda internet imkoniyatlarining ahamiyatini bayon eting.

51. *"Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi"*, -fikir kimga tegishli. Uni sharhlang?

52. **TALIS** xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot bering?

53. Darslik yaratishga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot bering. Amaldagi darsliklarning xalqaro talablarga qay darajada javob berish yoki bermasligi xususida fikringizni bayon eting.

54. Sharq mamlakatlari (Yaponiya, Koreya va boshq.) adabiy ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini yoriting. Ularning tajribalarini milliy o'qitish bilan qiyoslang.

55. Pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini kim ishlab chiqqan.

56. FLASH INDEX nima?

57. Adabiyotni fan va san'at asari sifatida o'qitish mazmuni. Bu borada milliy va xorij tajribalarini qiyoslang.

58. S.N.Lisenkova texnologiyasini aytib bering?

59. Adiblar ijodini o'rganishda ilg'or tajribalardan foydalanish mazmunini yoriting.

60. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari haqida ma'lumot bering?

61. Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda Internet saytlari bilan ishlash. Fikringizni misollar orqali asoslang.

62. "O'qitish tizimining qurama texnologiyasi"ni kim ishlab chiqqan?

63. Rus metodistlari (O.Bogdanova, G.Pransova va boshq.)dan birining badiiy asar matni ustida ishlash borasidagi tajribalariga munosabat bildiring.

64. Adabiyot o'qitishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.

65. Adabiyot fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi mazmuniga munosabat bildiring.

66. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining uslubiy asoslarini ayting?

67. Master klass tashkil etish talablarini yoriting. Bu boradagi tajribalaringiz bilan o'rtoqlashing.

68. "Virtual" ta'limga izoh bering?

69. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining mazmunini yoriting.

70. Pedagogik hamkorlikning maqsadli yo'nalishlarini sanab bering.

71. Elektron ta'lim resurslari haqida ma'lumot bering.



72. Rossiya Federatsiyasi “Adabiyot” darsliklari mazmunini tahlil qiling. (biror sinf misolida).

73. Adabiyot o‘qitishda axborot texnologiyalarining ahamiyatini bayon eting.

74. Adiblar hayoti va ijodiy faoliyatiga oid internet portali.

75. Loyihali ta’lim texnologiyasining dolzarbligi haqida gapiring.

76. Adabiyot darsliklarida ijodiy xarakterdagi topshiriqlarning berilishi masalasini tahlil qiling.

77. Badiiy asarlarni tahlil qilishda savol-topshiriqlardan foydalanish mazmunini yoriting.

78. Virtual olamda interfaollik daganda nimani tushunasiz?

79. Badiiy asarni tahlili va sharhlashdagi farqli tomonlarni ko‘rsating.

80. Xalq og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan darslar uchun audio materiallar tayyorlash.

81. Pedagogik annotatsiya nima?

82. Loyiha texnologiyasi turlarini ayting?

83. Virtual ta’limning adabiyot o‘qitishdagi ahamiyati?

84. Tarixiy-adabiy sharhni tushuntiring?

85. O‘quv loyihalarini ishlab chiqish texnologiyasi.

86. Interaktiv usul nima?

87. Tarixiy-milliy sharh haqida gapiring.

88. O‘quv tahlilini yoriting.

89. Adabiyot o‘qitishning innovatsion muammolari.

90. Adabiyot darslarida muzeylarga ekskursiya uyushtirish

91. Lingivistik sharh qanday amalga oshiriladi?

92. G‘azalni tahlil qilish tamoyillarini ayting?

93. Didaktik o‘yin texnologiyalari haqida ma’lumot bering.

94. Tadqiqotchi sifatida “Til va adabiyot ta’limi”, “Xalq ta’limi”, “Uzluksiz ta’lim” metodik jurnallari faoliyatiga baho bering. Ulardan foydalanish bo‘yicha tajribalaringiz bilan o‘rtoqlashing.

95. Sharhlab o‘qitish deganda nimani tushunasiz?

96. Multimedia ilovalariga nimalar kiradi?
97. Pedagogikaga innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyatini ayting?
98. Jahon adabiyotini o‘qitish muammolari.
99. “Sharhlash” va “Germenevtik tahlil” metodlarini izohlang?
100. Multimedia texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?